



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI SOLIQ QO'MITASI HAY'ATI MAJLISINING
B A Y O N I

2024-yil 4 - mart

2 -son

O'tkazilgan sana

2024-yil 26-fevral

Raislik qiluvchi: Sh.Kudbiyev - Soliq qo'mitasi Raisi, hay'at Raisi

Qatnashganlar:

Markaziy studiyadan: Hay'at a'zolari, markaziy apparat tarkibiy tuzilmalari rahbarlari, Hududlararo inspeksiya boshlig'i o'rinbosarlari, "Yangi texnologiyalar" IAM va "Soliq ma'lumotlarini qayta ishlash markazi" DUK direktorlari.

Hududiy studiyalardan: Soliq boshqarmalari boshliqlari, ularning o'rinbosarlari, tegishli bo'lim boshliqlari, soliq inspeksiyalari boshliqlari va o'rinbosarlari hamda tegishli bo'lim boshliqlari (ro'yxat bo'yicha).

KUN TARTIBI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2024-yil 16-yanvarda o'tkazilgan yig'ilishdagi topshiriqlardan kelib chiqib, soliq xizmati organlarining 2023-yildagi faoliyati yakunlari hamda soliq siyosatidagi o'zgarish va qo'shimchalar bo'yicha 2024-yilda soliq ma'murchiligini tashkil etish hamda asosiy faoliyat ko'rsatkichlarini tasdiqlash to'g'risida.

2. Soliq xizmati organlarida qonun ustuvorligini ta'minlash borasida 2023-yilda olib borilgan ishlar natijadorligi va 2024-yildagi asosiy yo'nalishlar to'g'risida.

3. Savdo va xizmat ko'rsatish subyektlarida onlayn nazorat-kassa mashinalaridan foydalanish holati va bu borada olib borilayotgan soliq nazorati tadbirlari samaradorligi to'g'risida.

4. Boshqa masalalar.

(Sh.Kudbiyev, J.Abdiyev, A.Fayzibayev, U.Sadullayev, H.Bobojonov, X.Ismatov, S.Masharipov, A.Xudayberdiyev, Z.Qurbanov, X.Abdukarimov, N.Kadirov, A.Abdullayev, Y.Nasimdjanov, D.Yuldashev, E.Niyazov, B.Ismailov, A.Sobirov, A.Boyxanov, S.Eshmatov, Sh.Imomov, L.Qurbonov, E.Narmanov, A.Inagamov, M.Mamatxanov, X.Bekchanov, B.Tashpulatov, A.Botiraliyev, U.Xatamov, Sh.Saidov, E.Jurayev, Sh.Kudbiyev)

Hay'at majlisini Soliq qo'mitasi Raisi – hay'at Raisi Sh.Kudbiyev ochib, kun tartibidagi masalalar bilan majlis ishtirokchilarini tanishtirdi.

Hay'at majlisida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2024-yil 16-yanvar kuni o'tkazilgan yig'ilishida belgilangan topshiriqlardan kelib chiqib, soliq xizmati organlarining 2023-yildagi faoliyati yakunlari hamda soliq siyosatidagi o'zgarish va qo'shimchalar bo'yicha 2024-yilda soliq ma'murchiligini tashkil etish hamda asosiy faoliyat ko'rsatkichlarini tasdiqlash;

soliq xizmati organlarida qonun ustuvorligini ta'minlash borasida 2023-yilda olib borilgan ishlar natijadorligi va 2024-yildagi asosiy yo'nalishlar;

savdo va xizmat ko'rsatish subyektlarida onlayn nazorat-kassa mashinalaridan foydalanish holati va bu borada olib borilayotgan soliq nazorati tadbirlari samaradorligi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijalari to'g'risidagi masalalar tanqidiy muhokama qilindi.

Hay'at majlisida ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan Toshkent shahar, Buxoro, Namangan, Qashqadaryo, Samarqand viloyatlari soliq boshqarmalari boshliqlari, Hududlararo inspeksiya boshlig'ining birinchi o'rinbosari hamda Andijon viloyati Jalaquduq tumani soliq inspeksiyasi boshlig'ining hisobotlari hamda Soliq qo'mitasi markaziy apparati tegishli tuzilmalari boshliqlari va bir qator quyi soliq idoralari rahbarlarining axborotlari eshitildi.

Muhokama natijalariga ko'ra, Hay'at majlisi kun tartibidagi masalalar bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilinib, qo'shimcha ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan **quyidagi vazifalar belgilandi:**

1. Rais o'rinbosarlari M.Mirzayev, J.Abdiyev, A.Fayzibayev, U.Sadullayev, markaziy apparat tarkibiy tuzilmalari rahbarlari zimmasiga:

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2024-yil 16-yanvar kuni "2024-yilda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan ustuvor vazifalar" yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda soliq organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosini belgilangan muddatlarda to'laqonli ta'minlash borasida barcha zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish;

b) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qonunchilik hujjatlari va topshiriqlariga muvofiq "Ijro.gov.uz" tizimi orqali ijrosi Soliq qo'mitasiga yuklatilgan topshiriqlar **belgilangan muddatida** bajarilishini ta'minlash yuklatilsin.

2. Rais o'rinbosari J.Abdiyev, markaziy apparat tarkibiy tuzilmalari (Z.Qurbanov, R.Imamov), Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar soliq boshqarmalari:

a) soliq boshqarmalarining Soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish bo'limidagi qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilariga biriktirilgan barcha xodimlari tomonidan "Soliq boshqarmasi ma'murchiligi" axborot tizimi funksiyalari va imkoniyatlari **10 kun muddatda** mukammal ravishda o'rganib chiqilishi tashkil etilsin;

b) Savdo-sanoat palatasi hamda Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil hududiy tuzilmalari bilan birgalikda:

tadbirkorlik subyektlari bilan muntazam ravishda uchrashuvlar o'tkazib, o'rta, qoniqarli va quyi barqarorlik reytingidagi tadbirkorlik subyektlarining reyting ko'rsatkichlarini yaxshilash bo'yicha ularga tizimli ravishda amaliy yordam ko'rsatib borilsin;

yuqori barqarorlik reytingidagi tadbirkorlik subyektlari faoliyati to'g'risida videoroliklar va tashviqot materiallari tayyorlanib, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritib borilsin va mahallalarda targ'ibot tadbirlari amalga oshirilsin;

yuqori barqarorlik reytingidagi tadbirkorlik subyektlari ishtirokida umumiy, o'rta maxsus va oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan yoshlar uchun o'quv kurslari va mahorat darslari tashkil etib borilsin.

3. Tashkiliy ishlar va nazorat boshqarmasi (E.Jurayev) – Soliq qo'mitasi hay'atining mazkur majlis bayoni va qarorini ijroga qaratish to'g'risidagi buyruq **bir kun muddatda** qo'mita markaziy apparati tarkibiy tuzilmalari, barcha quyi soliq idoralari va tizim tasarrufidagi korxonalar va tashkilotlarga yuborilsin.

4. Hay'at majlisi bayonida belgilangan topshiriqlar ijrosini tegishlilik bo'yicha tashkil etish Rais o'rinbosarlari zimmasiga, nazorati Tashkiliy ishlar va nazorat boshqarmasiga yuklatilsin.

Hay'at Raisi



Sh.Kudbiyev